

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
PEDAGOGIKA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.T.Xalikova	
Sportchilarda milliy mafkuraviy bilim va malakalarni shakllantirish	94
R.Z.Raxmonova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning suggestiv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari	98
M.R.Umurzakova	
Maktabdan tashqari pedagogik jarayonlarni takomillashtirish mexanizmlari	103
B.A.Umarov	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va malakaviy amaliyotni tashkil etish bosqichlari.....	107
S.B.Shermuhammadova	
Mustaqil o'qish tushunchasining mazmuni va ta'limdagi ahamiyati.....	111
T.Y.Bakirov	
Stereometriyani o'qitishda tasvirli masalalardan foydalanish imkoniyatlar	115



UO'K: 378.147:37.091.12

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNING SUGGESTIV
KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СУГГЕСТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ****PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING SUGGESTIVE COMPETENCE OF FUTURE
PRIMARY EDUCATION TEACHERS****Raxmonova Rukiya Xon Zuxriddinovna**

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada etibor ilmiy tadqiqot markazlarida bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilarda suggestiv kompetentlikni takomillashtirishning samarali metod va vositalarini aniqlash borasida ilmiy izlanishlar, har bir jamiyatda ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish, bo'lajak avlodni ham ruhan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalash vazifasi ahamiyatli masalalar va mazmuniga doir ta'riflar tadqiqotlari doirasida shakllantirish yoritib berilgan.

Аннотация

Статья посвящена научным исследованиям в научно-исследовательских центрах по выявлению эффективных методов и средств повышения suggestивной компетентности будущих учителей начальной школы, формированию в рамках исследований определений по актуальным проблемам и содержанию задачи улучшения социально-психологической среды в каждом обществе, воспитания духовно и физически здорового будущего поколения.

Abstract

This article focuses on the scientific research in scientific research centers on identifying effective methods and means of improving suggestive competence in future primary school teachers, the formation of definitions within the framework of research on important issues and content of the task of improving the socio-psychological environment in each society, raising the future generation both spiritually and physically healthy.

Kalit so'zlar: Ilmiy tadqiqot markazlar, boshlang'ich o'qituvchilar, ijtimoiy-pedagogik, samarali metod, ehtiyoj, komil inson, tarbiya metodikasi, bo'lajak avlod, rahnamo, tashabus, qonun, manfaat.

Ключевые слова: Научно-исследовательские центры, учителя начальной школы, социально-педагогический, эффективный метод, потребность, совершенный человек, образовательная методика, будущее поколение, лидер, инициатива, закон, благо.

Key words: Scientific research centers, primary school teachers, socio-pedagogical, effective method, need, perfect person, educational methodology, future generation, leader, initiative, law, benefit.

KIRISH

Jahonda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini oshirish, pedagogik-psixologik qobiliyatlarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa rivojlangan davlatlarda bo'lajak pedagoglarda suggestivlikni, ya'ni ruhiy va esmotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish asosida o'quvchilar bilan munosabatga kirishish, ularni ergashtira olish, tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimni yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga o'quvchilarda o'qituvchining imkoniyati va mahoratiga bo'lgan ijobiy bahoning shakllanishi dars samaradorligini ta'minlashning muhim omili ekanligiga doir yondashuvlar shakllanayotgan vaziyatda pedagoglarning suggestiv qobiliyatini oshirish muhim pedagogik vazifadir. Bundan ko'rinadiki, har bir jamiyatda ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish, bo'lajak avlodni ham ruhan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalash vazifasi ahamiyatli hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni takomillashtirishning samarali metod va vositalarini aniqlash borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy

rivojlanishida ishonch va una asoslangan faoliyat muhim ahamiyat kasb etib, tsivilizatsiyaviy madaniyatning bir qismi sifatida umumbashariy qadriyatlar sifatida qadrlanib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan ham horijda bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarni yangicha ruhitda, qiyofada tarbiyalash, ularda ta'lim oluvchilarning ruhiy irodaviy ta'sir ko'rsatish orqali o'zining imkoniyatlarini ko'rsatishga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa jahonda bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni takomillashtirishga ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

O'zbekistonning ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlarida ham "mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish, professor-o'qituvchilarning bilimi vapedagogik mahorati monitoringini yuritish", pedagog-kadrlar kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni tayyorlashning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bunday vaziyatda bo'lajak o'qituvchi o'quvchilarga ruhiy va emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsata olish, ularni yo'naltirish, to'g'ri muloqot o'rnatish, o'zining g'oyalariga, fanni o'rganishga ergashtira olishga xizmat qiluvchi suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish va o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan tizimni yaratish zarurati yuzaga chiqmoqda. Bu orqali oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy malakasini rivojlantirish, ularni global axboriy makonda, turli g'oyalar va faoliyatlar bilan chalg'ish imkoniyati ko'p bo'lgan sharoitda o'quvchilarni fanlarni o'zlashtirishga, ilm olishga safarbar qilishning yangi imkoniyatlarini yaratishga harakat qilinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi davr pedagogik ta'lim kontsepsiyasi avvalo o'qituvchi ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni, ularni yuksak kasbiy – pedagogik mahorat cho'qqisiga ko'tarishni talab etmoqda. Bugun pedagogning pedagogik qobiliyati, e'tiqodi va o'quv jarayonini yaxshi bilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy hayot uchun katta ahamiyatga ega ekanligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchidan, pedagog jamiyatning a'zosi sifatida o'z mavqei va faol o'rnini o'quvchilarga namoyish yeta olishi lozim. Xususan, uning jamiyat va o'z jamoasidagi o'rnini, tanlagan kasbi, o'qitayotgan predmeti bo'yicha chuqur bilimga yega bo'lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me'yor va qonunlarni xurmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogning bilimdonligi uning yangi bilimlar, o'zi tanlagan sohasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, suggestiv qobiliyati, e'tiqodli va kasbiy ko'nikmalari orqali pedagog o'ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. Chunki, yoshlar shunday noyob, qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o'rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar. Mazkur fikrlar, o'quvchi shaxsining rivojlanishida uning faolligi, mustaqil fikrlashi, mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lim va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini o'zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi jarayonlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Demak, o'quvchi shaxsining rivojlanishida muhim hisoblangan jarayonlar ta'lim – mustaqil ta'lim, tarbiya – o'zini o'zi tarbiya, ma'lumot – mustaqil ma'lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar bilan bir qatorda, oilada, mahallada, ta'lim muassasasida va tengdoshlar o'rtasida vujudga keluvchi o'zaro ta'sir jarayonini ham ta'lim va tarbiya jarayonlari komponenti sifatida inobatga olish zarur.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo'lib, mazkur jarayon ishtirokchilarining o'zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hisoblanadi.

O'zaro ta'sir jarayonida ishtirokchilar barcha yo'nalishlar bo'yicha teng darajada axborotlar bilan ta'minlanadi va ularda tushunchalar, shaxsiy fikrlar tug'iladi. Bunday o'zgarishlarning xususiyati – bu axborotlar almashinish yo'li bilan o'zaro ta'sir ko'rsatish natijasida qo'lga kiritilgan integrativ natijadir.

Tarbiyaviy munosabatlar o'quvchi shaxsini rivojlantirishga, ya'ni ko'pgina holatlarda mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olish va o'zini o'zi tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida o'qituvchining bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, qobiliyati, fan-texnika, san'at, tabiatga bo'lgan munosabati hamda qiziqishi o'quvchilarga va o'quvchilarning faoliyatiga, ya'ni fikrlashi, tasavvuri, dunyoqarashining o'zgarishiga hamda tafakkurining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

PEDAGOGIKA

Demak, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoji va o'zi haqidagi ob'ektiv fikrlarining shakllanishi hamda rivojlanishiga, xatti-harakati va dunyoqarashining o'zgarishiga, qiziqishining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy muhit sifatida xizmat qiladi.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida pedagogdan suggestiv qobiliyatlar va yangicha munosabatlar talab yetilar yekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi xam o'ta muhim hisoblanadi.

Bular quyidagilar:

- **ijtimoiy bilimdonlik** - dars mobaynida sinf bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil yeta olish, o'quvchilar bilan til topirish va sog'lom ma'naviy muxitni xosil qila olish qobiliyati;

- **uslubiy bilimdonlik** - barcha bilimlarini, talabalarni o'quchilarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati;

- **kasbiy-siyosiy bilimdonlik** - o'z fani va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga yega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyatini o'zida shakllantirgan bo'lishi kerak.

NATIJALAR

Kasbiy bilim 3 ta qismga - nazariy bilimlar, amaliy bilimlar va metodik bilimlarga bo'linadi. Nazariy bilimlar bu fanga oid nazariy bilimlarni o'z ichiga olsa, amaliy bilimlar o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llashga oid bilim, ko'nikma va malakalardan iboratdir. O'zlashtirgan bilimlarini talabalarga o'rgatish uchun esa metodik bilimlar kerak bo'ladi.

Pedagogik qobiliyat ham bo'lajak pedagoglarda mavjud bo'lishi shart bo'lgan sifatlardan hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat - o'qituvchining muayyan faoliyat yuzasidai layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub'ektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir. Pedagogik qobiliyatning bir qancha turi bo'lib, ularning har biri o'qituvchiga pedagogik jarayonda biror bir faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi. Masalan, akademik qobiliyat - o'qituvchiga fanga oid nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishga yordam bersa, didaktik qobiliyat - ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

Pedagogik texnika tarkibiy qismlari 2 qismga bo'linib, birinchi guruhga pedagogning o'z ko'lamini boshqara olish mahorati bilan bog'liq bo'lib, unga o'z organizmini boshqarish (mimika, pantomimika), kayfiyat va his-tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy pertsepsiya malakasi (yuz ifodasini o'qiy olish), nutq texnikasi (nafas olish, tovushni to'g'ri tutish) kabilar kiradi. Ikkinchi guruhga esa shaxsga va jamoaga ta'sir eta olish mahorati bilan bogliq bo'lib, ular pedagogik muloqot texnikasi, talab qila olish texnikasi, tartib o'rnatish texnikasi, rag'batlantirish va jazolash texnikasi kabilardan iborat.

Mimika - o'zining fikr-mulohazalarini, his-tuyg'ularini, kayfiyatini yuz muskullari harakati orqali ifodalash san'ati. Ko'pincha yuz ifodasi so'zlardan ko'ra kuchliroq ta'sir qiladi. Mimika nutq mazmuniga mos bo'lishi kerak. U orqali ishonch, tasdiqlash, nozilik, hursandchilik, befarqlik, zavqlanish, qiziqish, hafa bo'lish kabi tuyg'ularni ifodalashga yordam beradi. Mimika detallari - qosh, ko'z, yuz muskullari. Shu sababli o'qituvchining ko'zi his-tuyg'ularni ifodalabgina qolmasdan, talabalarga taalluqli bo'lmagan his-tuyg'ularni yashira olishi ham kerak.

Pantomimika - fikrlarini ifodalashda qul, bosh va umuman gavda harakatlari, imo-ishoralardan foydalanish.

Ijtimoiy pertsepsiya - talabalarining yuz ifodalari, ko'z qarashlaridan ular psixologiyasini, kayfiyatini aniqlash.

Nutq texnikasi - muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quv soatlarining to'rtidan bir, ba'zan ikkidan bir qismi o'qituvchi nutqi orqali amalga oshiriladi. Talabalar o'qituvchi nutqiga nisbatan juda sezgir bo'lib, o'qituvchining xatolari, noto'g'ri talaffuz bolalarda kulgu uyg'otsa, monoton ohang ularni zeriktiradi, noto'g'ri intonatsiya esa nutqning yasama ekanligini ko'rsatadi va tinglovchilarni o'qituvchidan uzoqlashtiradi.

MUHOKAMA

O'tgan asrning 70-80 yillarida o'qituvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o'rganilgan. Jumladan, rus olimasi N.V.Kuzmina o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o'rni va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U o'z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni: gnostik

(bilishga oid), proektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik

tasnif bergan. N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatorida kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o'qituvchining bu hislati o'quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari kabi omillarni aniqlashga katta xizmat qiladi.

Psixolog olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etgan:

Psixolog olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to'g'risida mukammal ma'lumotlar bergan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat – murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o'qituvchining o'quv materialini, mavzu yoki muammoni talabalarga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, ularda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi lozim. O'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartirib soddalashtira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila olishi lozim.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik qobiliyati. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat – o'quvchilar holatini idrok qila olishi, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki ma'naviy dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish, pedagogik intuitsiya va empatiya bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutq qobiliyati – ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq; shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishidir. Qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhimvazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati – o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish qobiliyatidir. Fanda bu qobiliyat turi–avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o'rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o'quvchilar bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligidir.

8. Diagnostik (psixologik va pedagogik tashhislay olish) qobiliyati – bu pedagogning muhim qobiliyatlaridan bo'lib, o'qitish jarayoni samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Psixologik tashhis – ta'lim oluvchilarning shaxsiy-individual xususiyatlari, ruhiy jarayonlari va holatlarini to'g'ri aniqlay olish, pedagogik tashhis –ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlari va darajasini aniq, xolis baholay olish qobiliyatidir.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – pedagogning bir vaqtning o'zida bir necha ob'ektlarga diqqatini taqsimlay olishi va o'z munosabatini bildirishi. O'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, barqarorligi, ko'chuvchanligi, taqsimlanishining taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

10. Konstruktiv qobiliyat – o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsining rivojlanishini loyihalashga, o'quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

PEDAGOGIKA

11. Gnostik qobiliyat– tadqiqot ishlariga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyati jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

12. Suggestiv qobiliyat – ta'lim oluvchilarga ruhiy va emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish, ularni o'z imkoniyatlariga ishonтира olish mahoratida ko'rinadi.

Pedagogik faoliyat aniq ko'rinishda bo'lsa, unda o'qituvchi o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish vazifalarini aniq ko'ra oladi va ularni hal qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda faoliyat aqlni ruhiy jihatdan tayyorlaydi, ta'sir ko'rsatish vositalarini belgilaydi, natijalarni nazorat qiladi, tahlil qiladi, baholaydi va yangi vazifalarni belgilaydi. Bilimlarni o'zlashtirish vositasida shaxsning o'sishi ta'minlanadi, natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, vaziyatni tushunishi, har bir talabaning o'zlashtirish jarayonini, rivojlanib shaxs sifatida shakllanish darajalarining mezonini aniq ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor. Bu o'z navbatida o'qituvchidan katta bilim, tajribalarni talab etadi. Bu faqat kasbiy faoliyatni to'g'ri belgilash orqali amalga oshadi. Shunga ko'ra ta'lim muassasasi oldidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchiga pedagogik faoliyatni loyihalash zarurdir.

Insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirish davomida insonni yuqori — malakali mutaxassis qilib yetishtirish vazifasi chetlab o'tilmaydi. Chunki yukori malakaga yega bo'lmasa, inson o'zini shaxs sifatida to'laqonli namoen yeta olmaydi. Insonparvar yo'nalganlik o'quvchilarni ijtimoiy ishlab chiqarishning bo'lajak ishtirokchilari sifatida bir xil baholashdan, tor dioradagi mutaxassis tayyorlashdan uzoqlashni anglatadi. Bu holat shunday izohlanadiki, hozirgi bozor — munosabatlari keng yo'lga qo'yilgan sharoitda tor dioradagi bilim va tayyorgarlikka yega bo'lgan yosh avlod kelajakda hatto oddiy tirikchilik uchun xam _ kiynalib kolishi mumkin. Bugungi kunda ta'lim tizimini shunday yo'lga qo'yish kerakki, u umumilmiy va insonparvar tayyorgarlikni kuchaytirish orqali o'z-o'zini ishga solish imkonini bersin.

XULOSA

Xulosa qilganda, pedagogik qobiliyatlar pedagog uchun ish faoliyatida juda zarur va ahamiyatlidir. Har bir pedagogik qobiliyatning o'ziga xosligi mavjud va ularning pedagog bilishi va o'zida shu qobiliyatlarni shakllantira olishi zarur. Nafaqat ish faoliyatidagi pedagog balki kelajakda pedagog bo'lishni oldiga maqsad qilib qo'ygan har bir talaba buni bilishi kerak. Pedagogik qobiliyatlarni o'zida shakllantirish va uni qo'llash tufayli bolalarga ta'lim berishda yuksak natijalarni qo'lga kiritish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie tekhnologii i pedagogicheskoe masterstvo: Uchebnoe posobie dlya magistratury vsex spetsialnostey. – T.: «CHulpan», 2005. – 200 s.
3. Aripdjanova A.R. Razvitiya kreativnogo potentsiala pedagogov vysshix obrazovatel'nykh uchrejdeniy v usloviyax informatizatsii obrazovaniya. Dis. dok...fil... (PhD). - Toshkent-2017.
4. Buxarkina, M.Yu. Sovremennye pedagogicheskie i informatsionnyye tekhnologii v sisteme obrazovaniya: ucheb. posobie. — 2-e izd. / M.Yu.
5. Выгоский Л.С. Воображение и творчество в школьном возрасте. – М.: Наука, 1980. – 237 s.
6. Voronin A.M. Upravlenie razvitiya Innovatsionnoy obrazovatel'noy sredney shkol'y: Diss....kand.ped.nauk. – M.: 1995. – 135 s.